

10-SINF O'QUVCHILARIDA ESSE YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

ToshDO'TAU O'TAT fakulteti

3-kurs talabasi **Raximova Nigora**

Annotatsiya: Ushbu maqolada 10-sinf o'quvchilarida esse yozish ko'nikmasini rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Dars jarayonida ijodiy yozuv, tanqidiy fikrlash, mantiqiy izchillik kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, esse yozish jarayonining bosqichlari, o'qituvchining roli va o'quvchining mustaqil fikrlash faoliyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: 10-sinf, esse yozish, tanqidiy fikrlash, o'quv jarayoni, metodlar, ijodiy fikrlash

Article: This article explores effective ways to develop essay writing skills among 10th grade students. It discusses methods that foster creative writing, critical thinking, and logical consistency during the learning process. The paper also analyzes stages of essay writing, the teacher's role, and the student's independent thinking development.

Keywords: 10th grade, essay writing, critical thinking, learning process, methods, creative thinking

Kirish. Bugungi kunda maktab o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, o'z nuqtai nazarini asoslab berishi va mavzuni tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu sababli bugun maktab o'quvchilariga insho va bayon emas emas, esse yozdirish samarali natija beradi. Badiiy uslubning jimjimador so'zlariga boy, reallikdan uzoq fikrlar asosida yoziladigan insho va bayonlar o'quvchining

dunyoqarashini kengaytirmaydi. Jumladan, 10-sinf o'quvchilarida ham esse yozish orqali ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish juda muhimdir. Bugungi kun yoshlarida har bir voqea-hodisa nisbatan shaxsiy fikr, masalaning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'ra olish kabi qobiliyatlar shakllangan bo'lishi kerak. Bu kabi qobiliyatlarni shakllantirishda o'qituvchining roli katta. Esse-fransuz tilida "essai" tajriba, ingliz tilida "essay", "assay-intilish, ijodiy sinov, ocherk, lotincha "exagium"-o'ylash degan ma'noni anglatadi. Esse - o'quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Uning o'zgachaligi mavzuda ko'tarilayotgan muammoga fakt va dalillarni o'rinli keltirish orqali o'z munosabatini bildirish.¹ Orif Tolib o'z maqolasida esse bu erkin asar deydi. Shunday bo'lsa ham, esse shakli va mazmuniga bir qancha talablar qo'yiladi. Quyida eng muhimlarini eslatib o'tamiz:

- ✓ Fikr –mulohazalaringizni publitsistik uslubda bayon qilish;
- ✓ Esse 3 tarkibiy qismdan iborat bo'lishi lozim (kirish, asosiy qism, xulosa);
- ✓ Esse uchun reja tuzilmaydi, epigraf qo'yilmaydi.

10-sinf o'quvchilarida argumentli esse yozishni quyidagi usullar orqali rivojlantirish mumkin:

- ✓ O'quvchilarga ularning yoshiga mos podkastlarni eshittirish;
- ✓ Informativ teleko'rsatuvlarni tomosha qilish ;
- ✓ Sun'iy intellekt vositalari (masalan, ChatGPT, Gemini kabilar)ga esse mavzusiga oid savollar berish .

Esse yozish – bu o'quvchining o'z fikrini mantiqiy izchillikda bayon etishi, dalillar orqali asoslab berishi va o'ziga xos yondashuvini namoyon etishidir. 10-sinf o'quvchilari uchun esse yozishni o'rgatish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- 1.Mavzu tanlash va tushunish: O'quvchilarga mavzuni tushuntirish, asosiy g'oyani aniqlab olish va unga yondashuv yo'llarini ko'rsatish kerak.
- 2.Reja tuzish: (inshodagi kabi reja emas) kirish , asosiy qism va xulosani o'z ichiga

¹ Esse yozish qoidalari va tavsiyalar haqida metodik tavsiya -Diloyat Obidova Aminovna

olgan reja asosida yozish ishlari olib boriladi.

3. Ijodiy fikrlashni rag'batlantirish: Har bir o'quvchi mavzuga nisbatan o'z fikrini erkin ifodalashi uchun qulay muhit yaratish lozim. Bu esa ijodkorlik va mustaqillikni oshiradi.

4. Tanqidiy tahlil qilish : O'quvchilar esse yozish orqali ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, asoslash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

5. Baholash va tahlil: Yozilgan esselar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, o'quvchilarga fikr-mulohaza beriladi. Bu esa o'quvchini o'z ustida ishlashga undaydi.

Metodik tavsiyalar

O'quvchilar esse yozishda quyidagi metodlardan foydalansa, samarali natija beradi:

- Klaster usuli: Mavzu bilan bog'liq asosiy tushunchalarni tarmoqlab yozish orqali esse yozish rejasi shakllantiriladi.

- "Savol-javob" usuli : Mavzu asosida beriladigan savollar orqali o'quvchi mavzuni chuqur anglaydi. yozuv ishini olib boradi.

- "Rolga kirish" usuli: O'quvchi o'zini mavzu bilan bog'liq sohada yoki holatda tasavvur qilib esse yozishni olib boradi.

Esse - o'qitish natijalarini baholashning eng samarador usulidir, chunki o'quvchi esse yozish jarajonida, esse yozish uchun berilgan mavzuni mustaqil bajaradi va berilgan vaziyat yoki muammo bo'yicha dalillar keltirish orqali o'zining qarashlarini isbotlaydi. Shu sababli esse yozdirish orqali o'quvchilarning dunyoqarashini aniqlash mumkin. Shuning uchun o'quvchi nutqiy kompetensiyasini qaydarajada shakllanganini aniqlashning juda qulay yo'li hisoblanadi.²

Xulosa o'rnida aytish kerakki, 10-sinf o'quvchilarida esse yozish ko'nikmasini shakllantirish nafaqat o'quvchining yozma nutqini, balki og'zaki fikrlash, tanqidiy yondashuv, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu esa keyingi bosqichlardagi bilim olish jarayonida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar bu yo'nalishda –tizimli va ijodiy yondashuvni qo'llasa, natijalar samarali bo'ladi.

² Islomova Feruza Habibullaevna . Esse turlari va ularni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B Mengliyev va b. Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. -224 b.
2. Юсупова Т. А. To develop students’ knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal* (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
3. Yuldasheva D. – O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi / Darslik. – Buxoro – Durdona, 2021. – 418 b.
4. Obidova D. Esse yozish qoidalari va tavsiyalar haqida metodik tavsiya. // “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali. – Toshkent, 2022. № 14.
5. Islomova F. H. Esse turlari va ularni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* (E)ISSN: 2181-1784 4(01), Jan., 2024 SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz 612-617-betlar.

References:

1. B Mengliyev va b. Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. -224 b.
2. Юсупова Т. А. To develop students’ knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal* (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
3. Yuldasheva D. – O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi / Darslik. – Buxoro – Durdona, 2021. – 418 b.

4. Obidova D. Esse yozish qoidalari va tavsiyalar haqida metodik tavsiya. // “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali. – Toshkent, 2022. № 14.
5. Islomova F. H. Esse turlari va ularni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(01), Jan., 2024 SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz 612-617-betlar.